ALISHER NAVOIY IJODINING ESTETIK TAMOYILLARINI O‘RGANISHGA DOIR

Salohiy Dilorom Isomiddin qizi,
filologiya fanlari doktori, professor
Samarqand davlat Chet tillar instituti
yaqin sharq tillari kafedrasi
E-mail dsalohiy@gmail.com.uz
diloromopa1959@umail.uz

Annotatsiya: Maqolada mutafakkir shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ijodiy merosida inson hayoti va u yashayotgan jamiyat farovonligi borasida keltirilgan fikrlari bayon etilgan. Mutafakkir shoir Sharqda kechayotgan romantizm sharoitida o‘zini o‘ylantirgan masalalar xususida faqat badiiy so‘z va timsollar vositasida fikr-mulohazalarini bildiradi. U o‘zining o‘lmas asarlarida g‘oyaviy qarashlarini bir tizimga solib, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti haqida aniq, kontseptual, dasturiy xulosalarini ifoda etadi.

Tayanch iboralar: inson kamoloti, mehr-shafqat, shaxs erkinligi, vatan, jamiyat, dunyo, vatan, tamoyil, ijod.

Vatanimizning uzoq tarixidan bu kunga qadar dunyo fani va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan donishmand allomalar o‘tishganki, ularning soni va salohiyati darajasini boshqa bir xalq tarixi misolida ko‘rish mushkul bo‘lsa kerak. Ular orasidagi yorqin tarixiy shaxsiyatlardan biri Nizomiddin Mir Alisher Navoiy edi. Mutafakkir shoir va yirik davlat arbobi Alisher Navoiy o‘z davri siyosiy, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy hayotini boshqarib turgan kuchlardan biri edi. Shu boisdan u davlat siyosati va jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur bilar, insonlar maishiy turmushlarida sodir bo‘layotgan muammolarni ham tushunar, daho ijodkor sifatida davlati va jamiyati taqdiriga befarq bo‘la olmas edi. Shoir o‘rta asrlarda Sharqda kechayotgan romantizm sharoitida o‘zini o‘ylantirgan masalalar xususida faqat badiiy so‘z va timsollar vositasida fikr-mulohazalarini bildirishi mumkin edi. Shu boisdan u o‘zining o‘lmas asarlarida nafaqat katta ko‘lamdagi masalalar, balki jamiyat kishisining har bir muammosi va qiziqishlari haqida aniq, kontseptual, dasturiy xulosalarini ifoda etadi.[2.25 b.]

Alisher Navoiy o‘z umri va ijtimoiy jamiyat hayotiga nazar tashlar ekan, muvaqqat hayot inson uchun faqat baxt manbaidangina iborat emasligini idrok etadi. Shu boisdan muvaqqat jamiyat hayotida faqat halol mehnat, pok niyat, qanoat, sabr kabi fazilatlar vositasida insonni yaxshi axloq va ibratli hayotga tashviq etadi. Uning bunday fikrlari ijtimoiy ruhdagi she’rlarida o‘z aksini topgan.[4, 145 b.]

Alisher Navoiyning qarashlariga ko‘ra, Tangri taolo yaratgan narsalar ichida eng sharaflisi insondir. Inson o‘ziga nasib etilgan umrni behuda emas, balki ongli va samarali kechirishi lozim. Navoiy o‘lmas she’riyatida dunyo, bashariyat hayoti, inson shaxsi xususida g‘oyatda badiiy fikr yuritadi. U insoniyat uchun eng muhim bo‘lgan masala – shaxs erkinligi

masalasini bir necha yo‘nalish bo‘yicha ta’riflab beradi. Navoiy inson qadri-qimmatini, uning yaratguchi tomonidan sharaflanganligini, oliy xilqat ekanligini birgina baytida ham, «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi katta dostonlarida ham yorqin ifodalab beradi. Bir g‘azalida shoir ipak qafasda turgan erksiz qush timsolini tasvirlaydi:

Qushqa yung maskan aro xushroqdurur ozodliq,

Bo‘lg‘onidin band aro sayyod ipak domi bila. [3,76 b.]

Bu timsol vatangadolik, bevatanlikni anglatadi. Erkinlik shaxsning o‘z vatanida qo‘lga kiritiladi, inson o‘z sevimli maskanidan chekkada haqiqiy erkin bo‘la olmaydi.

Birovning qo‘li bilan insonga “hayvon sharbati”, ya’ni “abadiy hayot suvi”ning ichirilishi misoli esa yot g‘oyalarga qul bo‘lishni anglatadi. Shaxsiy manfaatini ko‘zlab begona qo‘l tutqizgan abadiy hayot suvini ichgandan ko‘ra, inson o‘z qo‘li bilan ajal sharbati – zaharni ichgani yaxshiroq:

Zahrni o‘z komi birla ichsa andin yaxshikim,

Ichsa hayvon sharbatin nokomliq jomi bila. [3,76 b.]

Xalq tabiatiga yot bo‘lgan begona mafkuraviy tazyiq yoki ongsiz ravishda ommaviy madaniyatga tobe’lik insonni erkinlikdan mahrum etar ekan. Shoir inson ma’naviy dunyosi pokligiga va go‘zalligiga alohida e’tibor qaratadi. U pok va sadoqatli insoniy muhabbat tarafdori. Oshiqlar dillarini rom aylovchi yuzlab go‘zallar bo‘lgan bog‘larda yurgandan ko‘ra, inson o‘zining oddiygina maskanida ko‘ngliga orom beruvchi yagona yori bilan bo‘lgani afzaldir:

Yuz dilorom aylagandin ravza hibsi yaxshiroq,

Bo‘lmoq o‘z vayroni ichra ko‘ngli oromi bila. [3,76 b.]

Ammo, masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, u ham bo‘lsa shaxs ozodligi faqat ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan birovga mute’ bo‘lmaslikdagina emas ekan. Shaxs komil erkin bo‘lishi uchun o‘zini ma’nan - ruhan poklashi, ijtimoiy va maishiy hayotda ko‘zga tashlangan barcha salbiy xususiyatlardan nafratlanishi, doimo hamma sohalarda adolat, haqiqat sari intilishi lozim. Asosiysi, inson jismini o‘rgimchak iplaridek mahkam chirmab turgan yomon nafslardan – nafsi ammoradan faqat o‘z kuchi va xohishi bilangina qutulishga erishmog‘i lozim. Shoir o‘z nafsini yenga olmagan tama’gir insondan uyasida yotgan itni afzal ko‘radi:

Bo‘lmoq itlar mun’imi tan to‘ma aylab yaxshiroq,

Tanni qilg‘uncha samin nokaslar in’omi bila.[5,201 b.]

Insonlik sha’nini oqlamaganlarning sovg‘a-salomlari bilan samin liboslar kiyib, bezanib yurgandan ko‘ra, uyasida yotgan itga hamtovoq bo‘lgan yaxshiroqdir.

Koinot gultoji bo‘lmish insonni sevgan va ulug‘lagan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari shu boisdan ham o‘zlarining boshlariga tosh yog‘ilsa sabr qilib, elga qarata gul yaprog‘i otilsa, toqat qilolmaydilar, elga jafo qilinsa faryod uradilar:

Yuz jafo qilsa manga bir qatla faryod aylamon,

Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram; [3,7 b.]

Badkirdor insonlarning ko‘nglim sari otgan tig‘lari unga kor etmadi, elim qalbiga urgan tig‘lari esa mening ko‘nglimni behad vayron ayladi:

Tiyg‘i bedodi agar ko‘nglumni nokor etdi, lek,

Elga urg‘on tiyg‘i behad ko‘ngluma kor ayladi; [3,77 b.]

Quyidagi satrlarda insonsevar, insonparvar, insonshunos buyuk Navoiyning asl fitrati, nurli siymosi ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi:

Shikva qilmon gar jafodin boshima yog‘dursa tosh,

Toqatim yo‘q elga qilsa bargi gul urmoq havas. [3,77 b.]

Tosh va gul bargi tazodi bilan ulug‘ shoir oddiy insonga bo‘lgan muhabbatini ifoda etmoqda.

Xullas, Hazrat Alisher Navoiyning ulug‘ligi shundaki, u butun ijodida INSON haqida, uning ulug‘ligi va mukarramligi haqida fikr yuritadi. Bu fikr doirasi esa har qanday milliy, diniy, mazhabiy, mafkuraviy hududlarni yorib chiqadi. Shu nuqtai nazardan uning har bitta bayti katta umuminsoniy ahamiyat kasb etadi:

To g‘amdadur Navoiy, dahr anga tiyradur,
Shod anglamas ulusni birov bo‘lsa qayg‘uliq [1,150 b.].

Elimizning haqiqiy bebaho mulki bo‘lgan Alisher Navoiy hazratlarining tafakkur ummonlaridan qonib-qonib ichish va kun sayin, yil sayin, asrlar sayin unday to‘ymaslik, qonmaslik ehtiyoji oshib boraverishini umid qilaman.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: “FAN”, 1991-1997.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat min-shamoyim ul-futuvvat. Ilmiy-tanqiy matnninashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va ko‘rsatkichlar muallifi Hamidxon Islomiy. – Toshkent: “MOVAROUNNAHR”, 2011.
3. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. “Hadis. Al-jomi’ as-sahih”. 4,3,2,1 jildlar. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1992-1997.
4. Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. Ikki jildlik. – Toshkent: Abdulla Kodiriy n-dagi XMN, 2002.
5. Ishoqov Yo. Naqshbandiya ta’limoti va o‘zbek adabiyoti.-Toshkent: Abdulla Kodiriy n-dagi XMN, 2002.
6. Isomiddin Salohiy. Ezgu so‘z qudrati. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2004.
7. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. - Toshkent: ”Tamaddun”, 2012.